

SAFARNOMA VA SAYOHATNOMA JANRLARIDA MUALLIF POZITSIYASI VA TASVIR USULI

Sobirboyeva Madina Baxtiyor qizi

Farg‘ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishi

3-kurs 23.86-guruh talabasi

Annotatsiya Mazkur maqolada safarnoma (sayohatnoma) janrining muallif pozitsiyasi hamda tasvir usuli tahlil etiladi. Unda janrning shakllanish xususiyatlari, muallifning voqelikka munosabati va safar jarayonini tasvirlash tamoyillari yoritiladi. Safarnoma (sayohatnoma)da muallifning bevosita kuzatuvchi sifatidagi o‘rni, voqealar bayonining izchilligi, geografik hamda etnografik tafsilotlarning berilishi asosiy belgilardan biri sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, janrda muallif “men”ining namoyon bo‘lishi, subyektiv baholash unsurlari, tasvirda emotsional-ekspressiv vositalardan foydalanish masalalari ochib beriladi. Maqolada safar tafsilotlarini bayon etish, kompozitsion qurilish, muallif nigohi va tasvir usullarining o‘zaro bog‘liqligi yoritiladi. Natijada safarnoma (sayohatnoma) janrining muallif pozitsiyasi hamda tasvir imkoniyatlari asoslab beriladi.

Abstract This article analyzes the author’s position and the method of depiction in the travelogue genre. It highlights the features of the formation of the genre, the author’s attitude to reality, and the principles of depicting the journey. The role of the author as a direct observer in the travelogue, the consistency of the description of events, and the provision of geographical and ethnographic details are considered as one of the main features. Also, the manifestation of the author’s "I" in the genre, the elements of subjective assessment, and the use of emotional-expressive means in the image are revealed. The article highlights the interrelationship of the description of the details of the journey, compositional construction, the author’s point of view, and the methods of depiction. As a

result, the author's position and the possibilities of depiction in the travelogue genre are substantiated.

Аннотация В данной статье анализируется позиция автора и метод изображения в жанре путевых заметок. Выделяются особенности формирования жанра, отношение автора к реальности и принципы изображения путешествия. В качестве основных особенностей рассматривается роль автора как непосредственного наблюдателя в путевых заметках, последовательность описания событий и предоставление географических и этнографических деталей. Также раскрываются проявления авторского «я» в жанре, элементы субъективной оценки и использование эмоционально-экспрессивных средств в изображении. В статье подчеркивается взаимосвязь описания деталей путешествия, композиционного построения, авторской точки зрения и методов изображения. В результате обосновывается позиция автора и возможности изображения в жанре путевых заметок.

Kalit soʻzlar Safarnoma, sayohatnoma, muallif pozitsiyasi, tasvir usuli, safar tasviri, muallif “meni”, kompozitsion qurilish, subyektiv bayon, geografik tasvir, etnografik tafsilotlar, badiiy tasvir, kuzatuvchilik usuli.

Keywords Travelogue, travelogue, author's position, method of depiction, travel depiction, author's “me”, compositional construction, subjective statement, geographical depiction, ethnographic details, artistic depiction, observational method.

Ключевые слова Путевые заметки, путевые заметки, позиция автора, метод изображения, описание путешествия, авторское “я”, композиционная конструкция, субъективное высказывание, географическое изображение, этнографические детали, художественное изображение, метод наблюдения.

Safarnomadagi makon tasvirini begona shahar, rayon, mamlakatlar tashkil etadi. Bu makonlar doʻst va dushman makonlari boʻlishi mumkin. Safarnomada voqelikda boʻlmagan narsa tasvir etilmaydi. Safarnomada faktu raqamlar va hujjat-u dalillar aniq

ko'rsatiladi. Ya'ni safarnomada voqea hajmi, hududini o'zgartirishga muallifni haqqi yo'q. Safarnomada voqea asosiy mavqega ega emas, yagona syujet va ziddiyat ushbu janrga xos emas. To'liq badiiy obraz va xarakter yaratish safarnoma muallifini maqsad emas. Muallif ba'zi odamlarga e'tiborli bo'lib, ularni asosiy jihatlarini, xulq-u atvorini amalda ko'rsatadi. Safarnomalarda asosan bir nafar-muallifni xarakteri ko'proq namoyon bo'ladi. Safarnomada voqea asarni yaxlitligini ta'minlanmaydi. Asarni yaxlitligi ushbu safar boshidan oxirigacha bo'ladi. Asarni yaxlitligi muallifni maqsadiga bog'liq. U bir joydan boshqa joyga boradi va qaytadi. Safarni tugatishi – asarni tugatishini ifodalaydi. Muallif safarnomada o'zidan biron jiddiy narsa qo'sha olmaydi. Shuning uchun safarnomani asosiy metodi relizm bo'lishi kerak. Ba'zi mualliflar o'rta asrlarda ba'zi narsalarni tasvirlashda realizmdan foydalanganlar, ammo ushbu amal haqiqatni yoritishida safarnoma qimmatiga salbiy ta'sir yetkazishi mumkin. Safarnomalarni qimmatini shunda zohir bo'ladiki, o'quvchilarni boshqa xalqlarni turmush tarzi, obodonchiligi, urf-odat, adabiyot va san'at, iqtisodiy-siyosiy hayoti bilan tanishtiradi. Har bir safarnoma zamon talabi va muallifning dunyoqarashiyu estetik didiga muvofiq bir markazlashtirilgan maqsadga qaratilgan. Bir yozuvchi ajoyibu g'aroyib narsaga e'tibor berilsa, boshqasi maktabu maorifga, umuman madaniyatga, uchinchi ijtimoiy tizim va uni muvofiqligi xalqning hayotiga va hokazolar". Safarnoma janri Sharq va o'zbek adabiyotida sayohat jarayonida kuzatilgan voqelikni badiiy-publitsistik asosda ifodalovchi, real hayotiy tajriba va muallif shaxsiy kuzatuvini markazga qo'yuvchi murakkab sintez janr sifatida shakllangan. Uning asosiy xususiyati shundaki, unda tasviriylik (deskriptiv qatlam), axborot berish (informatik qatlam) va muallifning subyektiv munosabati (interpretativ qatlam) bir butun tizimga birlashadi. Shu sababli safarnoma nafaqat adabiy matn, balki tarixiy-etnografik manba sifatida ham qiymat kasb etadi. Janrning genetik ildizlari arab adabiyotidagi rihla an'alariga, ya'ni sayohat va haj safarlarini hujjatlashtirishga borib taqaladi. Masalan, Ibn Battuta kabi sayyohlarning yozuvlari safarnoma tipologiyasining klassik namunasini tashkil etadi, chunki ularda geografik tasvir bilan birga madaniy solishtirish va ijtimoiy kuzatuv yetakchi o'ringa chiqadi. Sharq adabiyotida bu an'ana fors va turkiy muhitga o'tib, badiiylashtirilgan sayohat bayonlari shaklida rivojlangan. O'zbek

adabiyotida safarnoma janri sof nazariy janr sifatida emas, balki ko‘proq sinkretik shaklda, ya’ni memuar, ocherk, publitsistik yozuv va badiiy hikoya elementlari bilan qorishiq holda namoyon bo‘ladi. Jadid adabiyoti bu janrning rivojida muhim bosqich bo‘lib, unda sayohat motivi orqali jamiyatni modernizatsiya qilish g‘oyasi ilgari surilgan. Jadid mualliflarining safar yozuvlarida Yevropa yoki boshqa rivojlangan hududlar bilan solishtirish asosiy diskursiv strategiyaga aylangan bo‘lib, bu holat safarnomaning tanqidiy funksiyasini kuchaytiradi. Safarnoma strukturasi tahlil qilganda, u odatda uch asosiy narrativ qatlamlardan iborat ekanini ko‘rish mumkin: birinchisi - safarning tashqi voqeiy ketma-ketligi (yo‘l, manzil, harakat), ikkinchisi - tasviriy-etnografik qatlam (shahar, odamlar, urf-odatlar), uchinchi esa - muallifning reflektiv qatlamidir (xulosa, baho, taqqoslash). Aynan uchinchi qatlam safarnomani oddiy sayohat bayonidan ajratib turadi va uni badiiy tafakkur darajasiga olib chiqadi. Chunki safarnomada muallif faqat ko‘rganini emas, balki ko‘rganini qanday anglaganini ham ifodalaydi. Uslubiy jihatdan safarnoma ko‘pincha ochiq narrativ shaklda yoziladi: voqealar ketma-ket, lekin qat’iy syujetga bo‘ysunmaydi, bu esa janrga fragmentarlik xususiyatini beradi. Shu bilan birga, dialoglar, mini-epizodlar va tasviriy portretlar matnga dinamizm beradi. Til jihatidan esa safarnoma publitsistik aniqlik bilan badiiy ifodaviylikni uyg‘unlashtiradi: bir tomondan faktik aniqlik, ikkinchi tomondan metaforik tasvirlar kuzatiladi. Safarnomaning funksional jihati ham murakkab: u informativ (yangi bilim berish), kognitiv (dunyoqarashni kengaytirish), aksiologik (baholash tizimini shakllantirish) va ideologik (jamiyat haqidagi qarashlarni ifodalash) vazifalarni bajaradi. Shu sababli safarnoma faqat sayohat tavsifi emas, balki muallifning dunyo modeli va madaniy pozitsiyasini aks ettiruvchi matndir. Zamonaviy adabiyotda safarnoma an’anasi transformatsiyaga uchrab, sayohat essesi, blog narrativi va reportaj shakllarida davom etmoqda, biroq asosiy prinsip — real kuzatuv + subyektiv talqin uyg‘unligi — saqlanib qolgan. Shu nuqtai nazardan safarnoma janri o‘zining tarixiy ildizlariga ega bo‘lgan holda, hozirgi media va global kommunikatsiya davrida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan dinamik janr sifatida qaraladi. O‘zbek adabiyotida sayohatnoma va safarnoma janrlari real safar tajribasini badiiy kuzatuv va ijtimoiy tahlilga aylantiruvchi epik shakllar sifatida shakllangan. Ushbu janrlarda safar motivi faqat makon almashinuvi

emas, balki ijtimoiy voqelikni idrok etish va uni badiiy baholash vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu sababli sayohatnoma matnlarida geografik tasvir doimo ijtimoiy-ma'naviy mazmun bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Bu janrlarning asosiy xususiyatlaridan biri muallif pozitsiyasining ochiq va faol xarakterga ega bo'lishidir. Muallif voqelikni neytral kuzatuvchi sifatida emas, balki baholovchi va tanqidiy munosabat bildiruvchi subyekt sifatida ishtirok etadi. Masalan, Muqimiy sayohatnomalarida mansabdorlar, din vakillari yoki oddiy xalq tasvirida muallifning bevosita bahosi sezilib turadi; u hodisani faqat qayd etmaydi, balki unga ijtimoiy-axloqiy munosabat bildiradi. Bu holat muallif nutqining ekspressiv-baholovchi tabiatini kuchaytiradi. Tasvir usuli jihatidan sayohatnoma va safarnomalarda epizodik-kompozitsion qurilish yetakchilik qiladi. Voqelik uzluksiz syujet asosida emas, balki alohida lavha va mikroepizodlar zanjiri sifatida beriladi. Masalan, Muqimiy an'anasidagi "Qo'qondan Shohimardonga" yo'nalishli matnlarda har bir manzil (Bo'rbaliq, Roshidon, Do'rmoncha kabi toponimlar) mustaqil ijtimoiy kuzatuv markazi sifatida tasvirlanadi. Har bir epizodda alohida ijtimoiy holat ochiladi: bir joyda riyokorlik, boshqa joyda jaholat yoki ma'naviy tanazzul tasvirlanadi. Sayohatnoma poetikasida tipiklashtirish prinsipi markaziy o'rin egallaydi. Individual obrazlar emas, balki ijtimoiy tiplar yaratiladi. Masalan, "voiz", "mingboshi", "hoji" kabi obrazlar konkret shaxsdan ko'ra ijtimoiy rol va funksiyani ifodalaydi. Bu tiplar orqali muallif jamiyatdagi umumiy illatlarni umumlashtiradi. Shu bois tasvirda realistik detal bilan birga umumlashma ustuvor bo'ladi. Shuningdek, satira va kinoya sayohatnoma janrining asosiy ifoda vositalaridan biridir. Masalan, Muqimiy matnlarida "badkor", "murdor", "norozi" kabi ekspressiv birliklar ijtimoiy tanqidni keskinlashtiradi. "Dashti qaroqchizor" kabi tasvirlar esa muhitni dramatiklashtirib, tartibsizlik va xavf hissini kuchaytiradi. Bu orqali muallif kulgi ortida ijtimoiy fojiani ifodalaydi. Bundan tashqari, kontrast usuli ham muhim o'rin tutadi. Bir tomonda salbiy ijtimoiy manzara tasvirlansa, boshqa tomonda idealizatsiyalashgan tabiiy yoki ijobiy muhit beriladi. Masalan, Roshidon kabi tasvirlarda "obi ravon", "gulu gulzor" kabi ifodalar orqali uyg'un va go'zal tabiat manzarasi yaratiladi. Bu esa tanqidiy fonni yanada kuchaytiradi. Safar janrining ko'rinishi va shakllari turlicha bo'ladi:

-badiiylikka yo‘g‘rilgan safar

-publitsistik yo‘nalishda yozilgan safar

-kundalikka yozib borilgan safar

-xotiraga yozib borilgan safar. Xatlar asosida yozilgan safar shakli ko‘rinishi har xil, lekin maqsad vazifa bir xil. Cho‘lponning “Vayronalar orasida” asari aniq faktlarga asoslangan va o‘tmish xotiralari bilan qiyoslab yozilgan safarnomadir. Asar Andijon-O‘sh-Jalolobod safari taassurotlari asosida yuzaga kelgan. Muallifning uyqudan uyg‘otilib, aravaga chiqishi, onasini chiroq ko‘tarib, ancha yergacha kuzatib qo‘yishi, muallifning onasi haqidagi iliq fikrlari safarnomaning kirish qismi hisoblanadi.. Cho‘lpon bir qancha qishloqlarni ko‘rganligi, ulardagi maktablarga alohida e‘tibor berishi, xalqning ilmsizligidan kuyinib yozishi safarnomaning birinchi maqsadiga chiqadi. O‘sh atrofida yashaguvchi qirg‘iz xalqining maktab va ilmga intilishi, xalq o‘z harakati bilan maktab ochganligini, xalq o‘zi pul to‘plab, maktabning 6 oylik ta‘minotini tashkillaganiga alohida urg‘u beradi. O‘zganda ham maktab ochilganligi, lekin O‘sh shahridagi tayyor maktab qarovsiz holga kelganligi haqida kuyinib yozadi. Muallif asosan O‘sh shahrida xotin-qizlar ilmsizligi, ta‘lim va tarbiya masalasi, gullayotgan va qarovsiz qolgan maktablar taqdiriga, O‘shdagi birgina kinoteatrni Jalolobodga ko‘chirilganiga ham o‘z e‘tiborini qaratadi Cho‘lponni maqsadi aniq bo‘lgan. Sayohatga chiqqan sayyoh bu jihatlarga e‘tibor bermaydi. Lekin safarga maxsus topshiriq bilan chiqqan sayyoh safarni iker-chikirlarigacha bayon qiladi. Bu esa safar janrining muhim xususiyatidir. Ijtimoiy hayot, urf-odatlar, e‘tiqodlar va qadriyatlar, geografik tavsif, yo‘l xotiralari sifatida ham ahamiyatlidir. Muallifning shaxsiy kuzatkechinmalari birinchi o‘ringa chiqadi va asarning ma‘lum ma‘noda badiiyligini ta‘minlaydi. Umuman olganda, sayohatnoma va safarnoma janrlarida muallif pozitsiyasi ochiq tanqidiy, tasvir usuli esa epizodik, tipiklashtiruvchi va satirik xarakterga ega. Bu janrlar badiiy matn orqali jamiyatning ijtimoiy-madaniy holatini tahlil qiluvchi muhim estetik model sifatida namoyon bo‘ladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jo‘rayeva Manzura, jadid adabiyotida safarnoma janri va uning taraqqiyoti maqolasi
2. N. Karimov va boshqalar, o‘zbek adabiyoti tarixi
3. N. Rahmonov, o‘zbek mumtoz adabiyoti
4. Q. Yo‘ldoshev, adabiyotshunoslik asoslari
5. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi - 2000 - 2005
6. Muqimiy, sayohatnoma asari
7. Ma‘mura Jamolova, o‘zbek adabiyotida noma janri